



XALQ DEPUTATLARI TOSHLOQ TUMAN KENGASHINING QARORI

2022 - yil 28 - iyul

VI-60-88-11-160-K/22

Toshloq tumani hokimligi

Tuman byudjeti mablag‘larini jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarga yo‘naltirish tartibi to‘g‘risidagi nizomga o‘zgartish va qo‘srimchalar kiritish haqida

“Ochiq byudjet” axborot portalı orqali jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishni yanada kengaytirish, shuningdek, mahalliy byudjet mablag‘larini jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilishi tartibini yanada takomillashtirish maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalariga asosan xalq deputatlari Toshloq tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senati Kengashining 2022 yil 30 iyun kungi “Tuman (shahar) byudjetlari mablag‘larini jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarga yo‘naltirish tartibi to‘g‘risidagi namunaviy nizomga o‘zgartish va qo‘srimchalar kiritish haqida”gi KQ-337-IV-sonli qarori ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Xalq deputatlari Toshloq tumani Kengashining 2022 yil 4 fevraldagagi VI-53-19-11-160-K/22-sonli Qarori bilan tasdiqlangan tuman mahalliy byudjeti mablag‘larini jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarga yo‘naltirish tartibi to‘g‘risidagi Nizomning to‘ldirilgan yangi tahriri to‘g‘risidagi namunaviy nizomiga 1-ilovaga muvofiq o‘zgartish va qo‘srimchalar kiritilsin.

3. Toshloq tumani hokimligi “Tashabbusli byudjet” jarayonining 2022 yil 2-mavsumini sifatli o‘tkazish hamda aholini ushbu jarayonlarga keng jalb qilish choralarini ko‘rsin.

4. Toshloq tumani hokimligining Axborot xizmati va tuman hokimligi Moliya bo‘limiga ommaviy axborot vositalari orqali jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarning moliyalashtirilishi bo‘yicha ma’lumotlarni keng jamoatchilikka muntazam ravishda yetkazish vazifasi yuklatilsin.

5. Mazkur qaror bajarilishini nazorat kilish xalk deputatlari shahar Kengashining Maxalliy byudjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy isloxoatlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi M.Djo’rboev zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



A.Djurabaev

Xalq deputatlari Toshloq tuman
Kengashining
2022 yil 28 iyuldag'i
VI-60-88-11-160-K/22-son qaroriga
1-ilova

Xalq deputatlari Toshloq tuman Kengashining 2022 yil 4 fevraldag'i VI-53-19-11-160-K/22-sonli Qarori bilan tasdiqlangan tuman byudjeti mablag'larini jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarga yo'naltirish tartibi to'g'risidagi nizomga quyidagi o'zgartish va qo'shimchalar kiritilsin:

1. 10-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"Jamg'arma mablag'lari faqatgina jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni hamda ushbu tadbirlarni amalga oshirish bilan bog'liq hujjatlarni rasmiylashtirish (loyiha-smeta hujjatlarni ishlab chiqish, ekspertiza xulosalarini olish va boshqalar) bilan bog'liq xarajatlarni moliyalashtirishga yo'naltiriladi. Mazkur mablag'larni boshqa maqsadlarga yo'naltirish taqiqlanadi.";

2. 15-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"Takliflar fuqarolar tomonidan respublikaning istalgan hududi bo'yicha har bir jarayonda faqat bir marotaba berilishi mumkin. Bunda taklif mazmunan yagona ijtimoiy muammoni o'zida aks ettirishi lozim.";

3. 18-band quyidagi beshinchi xatboshi bilan to'ldirilsin:

"byudjet tashkilotini saqlab turish bilan bog'liq xarajatlarni o'zida aks ettirmasligi (kommunal, aloqa va Internet tizimi uchun to'lovlar, shuningdek, kanstovar va boshqa tez eskiruvchi moddiy qiymatliklar);";

4. 20-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"Tanlab olingan tadbirlarni amalga oshirish uchun talab etiladigan mablag'ning dastlabki miqdori tegishliliga ko'ra tarmoq korxonalari xulosasi asosida loyiha-smeta hujjatlari bo'yicha aniqlashtiriladi. Tadbir g'olib deb topilgandan so'ng loyihani amalga oshirish bo'yicha loyiha-smeta hujjatlari ishlab chiqiladi hamda tadbirning yakuniy qiymatiga aniqlik kiritiladi.

Agar tadbirning dastlabki qiymatiga nisbatan loyiha-smeta hujjatlariga ko'ra yakuniy qiymati ko'proqni tashkil etsa, mazkur holatlarda loyihani amalga oshirish

uchun talab etiladigan qo'shimcha mablag' tegishli tuman (tuman) "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"dagi mavjud yoki kelgusida kelib tushadigan mablag'lar hisobidan qoplab beriladi. G'olib deb topilgan loyihaning dastlabki qiymatidan kelib chiqib, tadbir doirasida amalga oshiriladigan ishlar (tovar va xizmatlar) hajmini kamaytirishga yo'l qo'yilmaydi.";

5. 24-band quyidagi ikkinchi xatboshi bilan to'ldirilsin:

"Bunda takliflar g'olib deb topilishi uchun 10 tadan kam bo'lмаган овоз soniga ega bo'lishi lozim.".

6. Quyidagi tahrirdagi 24¹-band bilan to'ldirilsin:

"24¹. G'olib deb topilgan loyihalarni amalga oshirishda yuzaga kelgan texnik muammolar sababli yoki ushbu loyihani amalga oshirish bo'yicha boshqa manbalar hisobidan mablag'lar ajratilishi holati kuzatilganda mazkur g'olib deb topilgan loyihalar "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"hisobidan moliyalashtirilmaydi va ushbu loyihalar uchun ajratilishi ko'zda tutilgan mablag'lar "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"ga qayta tiklanadi. Ushbu mablag'lar doirasida boshqa g'olib loyihalarni aniqlashga yo'l qo'yilmaydi.";

7. 25-band quyidagi ikkinchi xatboshi bilan to'ldirilsin:

"G'oliblar aniqlangandan so'ng "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"da shakllangan qoldiq mablag'lar g'olib deb topilgan loyihalarning yakuniy qiymatiga aniqlik kiritilishi munosabati bilan qo'shimcha talab etiladigan farqni qoplashga yoki kelgusida o'tkaziladigan "Tashabbusli byudjet" jarayonlariga yo'naltiriladi.";

8. Quyidagi tahrirdagi 25¹-band bilan to'ldirilsin:

"25¹. G'olib deb topilgan loyihalar mualliflari tomonidan tadbirlarni amalga oshirishning barcha bosqichlarini kuzatish hamda bajarilgan ishlarni real-vaqt ko'rinishida baholab borish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bunda jamoatchilik nazorati doirasida fuqarolar tadbirlarni kuzatib borish orqali qonun buzilishi holatlari yoki kamchiliklar kuzatilganda shikoyat tarzida vakolatlari organlarga murojaat qilishlari mumkin. Fuqarolar tomonidan loyihani amalga oshirishda boshqa ko'rinishdagi aralashuvlarga (pudratchi korxonani aniqlash yoki ishlarni ularning o'zлари tomonidan amalga oshirilishi, loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish va shu kabilar) yo'l qo'yilmaydi.";

9. Quyidagi tahrirdagi 33³-band bilan to'ldirilsin:

“33³. Moliya vazirligi har chorak yakunlariga ko‘ra “Ochiq byudjet” axborot portalida fuqarolarning byudjet jarayoniga jalg etilishi hamda tashabbusli byudjetlashtirish tadbirlari amalga oshirilishi samaradorligi va natijadorligi yuzasidan davlat hokimiyati organlari faoliyatini baholab boradi.

Baholash tizimi “0” balldan “100” ballgacha baholanib, tuman va tumanlar tashabbusli byudjetlashtirish jarayonlari natijalariga ko‘ra “yashil”, “sariq” va “qizil” toifalarga ajratiladi.

Bunda quyidagilar baholash mezonlari sifatida qo‘llaniladi:

ishchi komissiya tomonidan saralash bosqichi haqqoniy va sifatli o‘tkazilishini baholash – loyihalarni dastlabki va yakuniy qiymati o‘rtasidagi farq, asossiz rad etilgan loyihalar hamda loyihalarni amalga oshirish imkoniyati to‘liq o‘rganilmaslik natijasida g‘olib bo‘lgan loyihalarning keyinchalik rad etilishi darajasi (20 ballgacha);

fuqarolarning byudjet jarayoniga jalg etilishi darajasi – tegishli hudud bo‘yicha kelib tushgan loyihalar va ovoz sonining mavjud aholi soniga nisbati (20 ballgacha);

“Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga mablag‘lar o‘z vaqtida va to‘liq o‘tkazilishini baholashda – Jamg‘armaga tuman (shahar) qo‘srimcha mablag‘larining tegishli qismi yo‘naltirilishi holatidan kelib chiqib (20 ballgacha);

jamoatchilik fikri asosida shakllangan tadbirlarni amalga oshirishning samaradorligi va natijadorligini baholashda – “Ochiq byudjet” axborot portalida “Jamoatchilik nazorati” bo‘limi orqali loyiha mualliflari tomonidan bajarilgan ishlarni sifati va holatini baholash tizimi orqali (20 ballgacha);

loyihalarni amalga oshirish bo‘yicha buyurtmachilar bilan tizimli ishlar tashkil etilganligi darajasi – loyihalar moliyalashtirilishidan kelib chiqib, jami ajratilgan mablag‘ga nisbatan o‘zlashtirilgan mablag‘ga nisbati orqali (20 ballgacha) baholab boriladi.

Har chorak yakunlariga ko‘ra mezonlarga muvofiq tuman larning to‘plagan ballaridan kelib chiqib:

71balldan 100 ballgacha – “yashil hudud”,

55balldan 71 ballgacha – “sariq hudud”,

55 balldan past bo‘lganda – “qizil hudud” deb topiladi.

“Qizil hudud” deb topilgan tuman hokimliklarining tashabbusli byudjet jarayoni ijrosi yuzasidan hisoboti chorak yakunlariga ko‘ra Oliy Majlis Senatida eshitib boriladi.”

10. 34-banddagи “O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Davlat moliyaviy nazorati departamenti” so‘zlari “O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi” so‘zlariga o‘zgartirilsin.;

11. 1-ilovaning 4-bosqichi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

4-bosqich	Ishchi komissiya	Mezonlarga muvofiqligi hamda tadbirlar amalga oshirilishi imkoniyatlarini o‘rgangan holda takliflarni tanlab oladi.	“Ochiq byudjet” axborot portalida takliflarni ilgari surish bosqichi yakunlangandan so‘ng yigirma kun davomida
------------------	------------------	---	--

12. 2-ilova quyidagi tahrirda bayon etilsin:

**Jamoatchilik fikri asosida tadbirlarni shakllantirish, baholash hamda ularni
tuman byudjetining mablag'larini hisobidan moliyalashtirish mezonlariga
mosligi monitoringini olib borish bo'yicha ishchi guruhning**

TARKIBI

T/r	FIO	Ish joyi va lavozimi *
1.	K. Umarov	Toshloq tuman hokimining birinchi o'rinnbosari, <i>Ishchiguruh rahbari</i>
2.	A.Soliyev	Xalq deputatlari Kengashining kotibiyati mudiri
3.	A.Dexqonov	Tuman hokimining qurilish masalalari bo'yicha o'rinnbosari
4.	S.Usmonov	Tuman hokimi o'rinnbosari — mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash bo'limi boshlig'i
5.	J.Qurbanov	Tuman hokimligi moliya bo'limi mudiri
6.	T.Abdullayev	Tuman hokimligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi vakili
7.	T.Soliyev	O'zbekiston Xalq Demokratik partiyasi Toshloq tumani Kengashi raisi
8.	A.Qodirov	Tuman elektr tamoqlari rahbari
9.	G'.Shokirov	Tuman gaz bo'limi boshlig'i
10.	A.Soliyev	Tuman Xalq ta'limi bo'limi boshlig'i
11.	A.Tojiboyev	Tuman tibbiyot birlashmasi boshlig'i